



**Rustam MAMATQULOV,**  
*Toshkent Kimyo-texnologiya instituti katta o'qituvchisi*  
*E-mail:rustammamatqulov1966@gmail.com*

*DSc, professor I.Siddiqov taqrizi asosida*

### MILLAT - INSONIYATNING O'ZLIKNI ANGLASH JARAYONIDAGI ENG OLIY IJTIMOY BOSQICH

Annotatsiya

Maqolada millat tushunchasi zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkur nuqtai nazaridan talqin etiladi. Millatga berilgan turlicha ta'riflar tahlil etilgan. Millatning mohiyatini o'zlikni anglash jarayonining oliy bosqichi sifatida olib qaraydi. Ma'naviy aksiologik mazmuni ko'rsatiladi.

**Kalit so'zlar:** Millat, insoniyat, o'zlikni anglash, zamonaviy falsafiy tafakkur, konstruktivistik yondashuv, milliy identitetlik, "imagnasiya", madaniy-siyosiy birlik, essensialistik, tarixiy ong, strategiya.

### НАЦИЯ - ЭТО ВЫСШАЯ СОЦИАЛЬНАЯ СТАДИЯ В ПРОЦЕССЕ САМОПОЗНАНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСТВА

Аннотация

В статье понятие нации интерпретируется с точки зрения современного социально-философского мышления. Проанализированы различные определения, данные нации. Сущность нации рассматривается как высшая стадия процесса самосознания. Показано её духовно-аксиологическое содержание.

**Ключевые слова:** Нация, человечество, самосознание, современное философское мышление, конструктивистский подход, национальная идентичность, «воображение», культурно-политическое единство, эссенциалистский подход, историческое сознание, стратегия.

### A NATION IS THE HIGHEST SOCIAL STAGE IN THE PROCESS OF HUMANITY'S SELF-AWARENESS

Annotation

The article interprets the concept of the nation from the perspective of contemporary socio-philosophical thought. Various definitions of the nation are analyzed. The essence of the nation is considered as the highest stage of the process of self-awareness. Its spiritual and axiological content is demonstrated.

**Key words:** Nation, humanity, self-awareness, modern philosophical thought, constructivist approach, national identity, "imagination," cultural and political unity, essentialist approach, historical consciousness, strategy.

**Kirish.** Hozirgi davr ijtimoiy-falsafiy tafakkur kontekstidan "millat", "o'zlikni anglash" va "manfaat" tushunchalari jamiyatning ichki mohiyatini, uning o'zini anglash darajasini hamda tarixiy rivojlanishidagi ma'naviy va siyosiy vektorini ifodalovchi asosiy kategoriyalar sifatida talqin etiladi. Ushbu tushunchalar insoniyatning ijtimoiy mavjudligi, ijtimoiy ongning shakllanishi va milliy o'zlikning falsafiy mohiyatini yoritish nuqtai nazaridan muhim metodologik ahamiyatga ega bo'lib, ular jamiyatning o'z-o'zini tashkil etish mexanizmini, tarixiy taraqqiyot qonuniyatlarini va ijtimoiy ongning evolyusion shakllarini tushunishga imkon beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Millatning mavjudligi o'zida ikki o'lchovni mujassam etadi: bir tomondan, u ijtimoiy-siyosiy tizimning tarixiy natijasi sifatida moddiy-madaniy hayotning real shakllarida namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan, u ma'naviy-aksiologik mazmun kasb etgan, insonlarning o'zini umumiy qadriyatlar, ruhiy meros va tarixiy xotira orqali "bir butun mavjudot" sifatida idrok etishiga asos bo'luvchi g'oyaviy-ma'naviy birlikdir. Shu bois millatni ijtimoiy-falsafiy tilda "ijtimoiy mavjudlikning ma'naviy shakli" sifatida ta'riflash mumkin, chunki u insoniyatning o'zligini tarixiy jarayon doirasida anglash, uni g'oyaviy jihatdan asoslash va abadiylikka daxldor qilish istagining ijtimoiy ifodasidir. Millat — bu o'z tarixiy mavjudligini anglagan, o'z madaniy kodini saqlagan va o'z qadriyatlarini ijtimoiy amaliyotda qayta ishlab boruvchi ijtimoiy ongning yuksak shaklidir. Uning asosini o'zaro birdamlik, umumiy taqdirni tan olish, o'tgan avlodlar merosini davom ettirish va kelajak avlodlar oldida mas'uliyat his etish

tashkil etadi. Millat shu ma'noda insonning tarixiy mavjudligini individuallikdan ijtimoiylikka, o'zlikdan umumiylikka ko'targan ma'naviy dialektik jarayon sifatida namoyon bo'ladi. U o'z mohiyatiga ko'ra, ontologik jihatdan mavjud, gnoseologik jihatdan anglangan va aksiologik jihatdan qadrlanadigan ijtimoiy birlikdir.

Professor S.O.Otamuratov: "Millat real insonlardan tashkil topgan, shu bois ular turli ichki his-hayojon, ruhiy salohiyatlarga egadir. Ularning darajalariga oxirgi nuqtani qo'yishga intilishning o'zi masalaga g'ayri ilmiy yondashuvdan boshqa narsa emas"[1], deya konseptual fikrni ilgari suradi. "... millat ijtimoiy taraqqiyotning mahsuli bo'lishi bilan birga tabiat olamining buyuk mevasi hamdir"[2]. Mantiqan, hayotning davomiyliigi - turli his hayojonga ega insonlarning muayyan millatga mansubligida ko'rinadi. Millat ijtimoiy-falsafiy jihatdan odamlarning tabiiy-biologik asoslardan yuksalib, ma'naviy-madaniy birlik, umumiy tarixiy xotira, til, hudud, urf-odat va qadriyatlar majmuasiga asoslangan ijtimoiy yaxlitlik darajasiga ko'tarilishidir. Millat — bu insoniyat mavjudligining tarixiy va madaniy shakli, ijtimoiy birlikning eng yuksak darajasi bo'lib, u orqali inson o'zining individual mavjudligini umumiy ijtimoiy mavjudlik bilan uyg'unlashtiradi. Shu ma'noda, millat nafaqat etnik birlik, balki ma'naviy va axloqiy ongning ijtimoiy shaklidir; u insonning tarixiy o'zini anglashining natijasi, uning ijtimoiy mohiyatini amalga oshirish shakli sifatida namoyon bo'ladi. Millatning mavjudligi individual ongni umumiy ijtimoiy ong bilan birlashtiradi, shu tariqa jamiyatning o'z-o'zini bilish jarayonini ifodalaydi. L.M. Xoliqov fikricha, millat — bu davlatning barqarorligi, ijtimoiy totuvlik va madaniy

uyg'unlikning metafizik markazidir"[3]. Uning nazarida, millat nafaqat ijtimoiy birlik, balki davlat barqarorligining falsafiy tayanchidir. U millatni "ijtimoiy borliqning ontologik markazi" sifatida ko'radi, ya'ni millat tarix, siyosat, madaniyat va ma'naviyatni birlashtiruvchi universal birlikdir. Xoliqovning yondashuvi millatni davlat siyosatining axloqiy zaminiga aylantiradi, lekin bu holatda millatning fuqarolik shakli va erkinlik jihatlari cheklangan ko'rinadi. Millat tarixiy taraqqiyotning bevosita ishtirokchisi emas, balki uning ma'naviy mazmunini belgilovchi, tarixni ong orqali mujassamlashtiruvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Demak, millat ijtimoiy-falsafiy paradigma nuqtai-nazaridan insoniyatning o'z-o'zini anglash jarayonida shakllangan, umumiy tarixiy xotira, madaniy meros, ma'naviy qadriyatlar, til, ruh va o'z taqdirini belgilash irodasiga asoslangan ongli ijtimoiy mavjudlik shaklidir. U nafaqat ijtimoiy hayotning mahsuli, balki ma'naviy mavjudlikning asosiy shakli bo'lib, jamiyatni ichki ruhiy uyg'unlikka, barqarorlikka va tarixiy davomiylikka yetaklovchi ma'naviy energiya manbai hisoblanadi.

Millat tushunchasi falsafiy tafakkur tarixida ko'p qirrali fenomen sifatida talqin etilgan. N.N. Straxov milliylikni madaniy identifikasiya shakli sifatida izohlar ekan, shunday deydi: "Milliylik bu davlat yoki qon bilan belgilanuvchi hodisa emas, balki insonning dunyoni o'ziga xos madaniy idrok etish usulidir"[4]. Bu fikr millatni tabiiy yoki biogenetik tushunishdan ma'naviy-madaniy talqinga o'tish zarurligini ko'rsatadi. Shu ma'noda, milliy manfaat - millatning o'zini saqlash instinkti emas, balki uning madaniy va axloqiy barqarorligini ta'minlovchi ijtimoiy qadriyatdir. Millatning mohiyati - bu insoniyatning o'zlikni anglash jarayonidagi eng oliy ijtimoiy bosqichdir. Uning mazmuni esa jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy, axloqiy va g'oyaviy birlikda mujassamdir. Millat insoniyat borligining ijtimoiy ongda ramziy ifodasidir. U shaxsiy manfaatlarni umumiy g'oya bilan birlashtiradi, etnik farqlarni ma'naviy birlikka aylantiradi, shaxsni ijtimoiy tarixiylikka bog'laydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Millatning falsafiy mohiyati insoniyat mavjudligining ontologik asosida, ya'ni "borliq - ong - g'oya - axloq" dialektikasida to'liq ochiladi. Millat tushunchasi ijtimoiy-falsafiy tafakkur doirasida barqaror mohiyatga ega "tabiiy birlik" emas, balki tarixiy, siyosiy va madaniy kontekstlarda uzluksiz tarzda qayta konstruktlanadigan dinamik ijtimoiy reallikdir. Uning ontologik asoslari emas, balki gnoseologik va aksiologik tahlili ijtimoiy-falsafaning markaziy vazifasidir. Millatni bu kontekstdan tashqarida faqat etnik, qon-qarindoshlik yoki madaniy birlik sifatida ko'rish nazariy jihatdan cheklovli va siyosiy jihatdan xavfli essensializmga olib boradi. Aksincha, bu fenomenni tushinishda turli g'oya paradigmatlari va diskursiv mexanizmlarning kesishmasi aniqlovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Birinchi bo'lib, konstruktivistik yondashuvni ta'kidlash joiz: Benedikt Anderson millatni "tasavvur qilingan siyosiy hamjamiyat" deb atab, shunday yozadi: "millat - bu voajimaginal hamjamiyat, chunki hatto eng kichik millat ham shunday tasavvur qilinadiki, a'zolari bir-birini hech qachon ko'rmagan, tanimagan yoki eshitmagan bo'lishi mumkin, biroq ularning ongida ular bir hamjamiyatga tegishli degan tasavvur yashaydi"[5]. Bu ta'rif millatni mantiqiy emas, balki timsoliy va kommunikativ birlik sifatida talqin qiladi.

Anderson nazariyasi epistemologik jihatdan innovasion bo'lsa-da, u millatni psixologik va madaniy tasavvurlar bilan chegaralaydi, ammo uni tayanch siyosiy-iqtisodiy strukturalar (davlat, kapital, huquqiy tizim) bilan bog'lashda sustlik qiladi. YA'ni, milliy identitetni "imajinasiya" bilan cheklash, uning institutsional omillarini soyada qoldiradi. Ernest Gellner esa bu bo'shliqni modernizasion yondashuv orqali to'ldiradi. Uning fikricha,

"millat — bu sanoatlashgan jamiyat mahsuli bo'lib, yagona standart til, umumiy ta'lim tizimi, birlashgan axborot makoni va markazlashtirilgan siyosiy struktura orqali yaratilgan madaniy uyg'unlik natijasidir"[6]. Gellnerning konstruktivistik, lekin strukturaviy asoslangan yondashuvi millatni muayyan texnologik va institutsional sharoit mahsuli sifatida tushunishga imkon beradi. Biroq bu nazariya ham tanqidiy pozitsiyalardan holi emas: uning deterministik tabiati - postindustrial jamiyatlarda milliy mobilizasiyani tushuntirishda - yetarli izoh bermasligi mumkin. Mazkur ikki yondashuv o'rtasida sintez qiluvchi pozitsiyani etnosimvolizmga asoslangan D. Smit egallaydi. U millatni "madaniy-siyosiy birlik" deb ta'riflab, uning zamirida "tarixiy xotira, umumiy miqlar, ramzlar, qadriyatlar va timsollar yotadi"[7]deya ta'kidlaydi. Smitning yondashuvi milliy identitetni uzoq muddatli tarixiy-madaniy kodlar tizimi sifatida tushunishga yordam beradi. Biroq, bu yondashuv essensialistik xatarlarga yo'l ochadi: tarixiy xotiraning "uzluksizligi" hamisha siyosiy selektivlik orqali shakllanadi va bu esa "milliy ruh" tushunchasini ideologik instrumentga aylantirish ehtimolini kuchaytiradi.

Millat insoniyat sivilizasiyasining ijtimoiy-falsafiy tafakkurida o'ziga xos murakkab, ko'p qatlamli, tarixiy, siyosiy va ma'naviy mazmunga ega bo'lgan tushunchadir. U shunchaki etnik birlik yoki ma'muriy tashkilot emas, balki insoniyatning o'zlikni anglash, tarixiy tajriba va madaniy integrasiyaning natijasidir. Millatning mohiyati va mazmunini anglash uchun uni ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan, ya'ni "borliq va ongning ijtimoiy shakllanishi" doirasida tahlil qilish zarur. Chunki millat inson va jamiyat o'rtasidagi dialektik uyg'unlikning eng yuksak bosqichi bo'lib, u ijtimoiy ongning kollektiv shaklini ifodalaydi. Millat fenomenini falsafiy jihatdan izohlashda tarixiylik tamoyili yetakchi o'rinni egallaydi. N.A. Nazarov Markaziy Osiyo mintaqasidagi polisistemali ijtimoiy hayot kontekstida tahlil qilib, shunday yozadi: "Millat - bu tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanib, umumiy til, hudud, iqtisodiy hayot va madaniy qadriyatlarga asoslangan ijtimoiy-siyosiy birlikdir"[8]. Nazarovning fikrida millatning mohiyati "etnos - imperiya - millat - milliy taraqqiyot" bosqichlarida namoyon bo'ladi, bu esa millatning ijtimoiy borliqdagi evolyusion shaklini anglatadi. Nazarov millatni tarixiy rivojlanishning sifat o'zgarishi sifatida ko'radi, ya'ni etnik birlikdan siyosiy va ma'naviy birligiga o'tish bosqichi deb talqin etadi. Falsafiy nuqtai nazardan bu yondashuv millatni "ijtimoiy ongning tarixiy shakli" sifatida talqin etish imkonini beradi. Biroq Nazarovning nazariyasida millatning aksiologik jihati, ya'ni qadriyatlar tizimidagi o'rni yetarlicha yoritilmagan, bu esa millatni faqat tarixiy jarayonning mahsuli sifatida tor talqin qilishga olib keladi.

**Tahlil va natijalar.** Hozirgi globallashtiruv jarayonlari, geosiyosiy beqarorliklar, xalqaro migrasiya oqimlarining jadallashuvi, konfessiyalar va etnoslararo munosabatlardagi murakkab ijtimoiy psixologik holatlar insoniyat oldiga millat tushunchasining mohiyatini chuqur falsafiy tahlil qilish zaruratini keskin qo'ymoqda. Millat - bu shunchaki etnik birlik emas, balki tarixiy sharoitda shakllangan, til, hudud, madaniyat, ma'naviyat, psixologik xususiyatlar, iqtisodiy manfaatlar va huquqiy ong negizida uyg'unlashgan ijtimoiy birlikdir. Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan millat insonning o'zlikni anglashining eng yuqori bosqichi bo'lib, u jamiyatdagi integrasion jarayonlarning faol subyektidir. Shu boisdan, millatni faqat tabiiy, biogenetik yoki til asosida izohlash bilan bir qatorda, uning murakkab sosial tabiati, tarixiy-dinamik mohiyatini ochib berishga ham e'tibor qaratish kerak. N.A. Nazarov tomonidan ilgari surilgan qarash alohida ahamiyatga ega: u millatni "umumjahon g'oyasiga ega, davlat tarixi kontekstida siyosiy va ijtimoiy uyg'unlik asosida shakllangan birlik"[9] sifatida tavsiflaydi. Bu yondashuv millatni faqat etnik birlik emas, balki fuqarolik,

huquqiy va axloqiy ong negizida shakllanuvchi konseptual birlik sifatida talqin qiladi.

**Xulosa va takliflar.** Bizning nazarimizda, millat - bu faqat etnik birlik yoki siyosiy tashkilot emas, balki tarixiy xotira, madaniy genotip, ijtimoiy ong va ma'naviy qadriyatlar tizimining uzviy uyg'unligida mavjud bo'luvchi ijtimoiy-falsafiy organizmdir. U jamiyatning o'zini anglash shakli bo'lib, unda insonning individual o'zligi milliy ruhda universallashtiriladi. Millat - bu ontologik birlik (tarixiy mavjudlik), gnoseologik shakl (o'z-o'zini bilish), va aksiologik hodisa (qadriyatlar tizimi)ning sintezidir. Millat -

bu tarixiy xotira, madaniy tafakkur va ijtimoiy ongning integratsiyasi natijasida shakllangan ma'naviy-organik birlik bo'lib, u o'z a'zolarining individual manfaatlarini umumiy qadriyatlar darajasiga ko'taruvchi ijtimoiy-falsafiy tizimdir. Mazkur ta'rifda millatning mohiyati biologik yoki siyosiy emas, balki ma'naviy-ontologik shakl sifatida ochiladi. Millat - o'zlikning tarixiy shakli, shaxs va jamiyatning o'zaro tan olinish jarayonidir. Shu bois, millatni "siyosiy birlik" deb emas, balki tarixiy ongning ijtimoiy shakli deb belgilash ijtimoiy falsafa uchun to'g'ri metodologik asos yaratadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Отамуратов С.О., Отамуратов С. Ўзбекистонда маънавий-рухий тикланиш. “Янги аср авлоди”.Т,-2003.15-бет.
2. Отамуратов С.О., Отамуратов С. Ўзбекистонда маънавий-рухий тикланиш. “Янги аср авлоди”.Т,-2003.18-бет.
3. Холиқов Л.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясида миллатлар ва миллатлараро муносабатлар ривож. PhD дисс. автореф. – Бухоро, 2023. – Б. 9–11 бет
4. Страхов, Н.Н. (2014). Национальный вопрос: опыт социальной герменевтики. – Москва: Вопросы философии, № 12, с. 53–58.
5. Андерсон Б. Воображаемые сообщества: размышления об истоках и распространении национализма. — М.: Канон-Пресс-Ц, 2001. — 320 с. — С. 34.
6. Геллнер Э. Нации и национализм. — М.: Прогресс, 1991. — 272 с. — С. 56.
7. Smith A. D. The Ethnic Origins of Nations. — Oxford: Blackwell, 1986. — 250 п. — П. 22.
8. Назаров Н.А. Марказий Осиё полиэтник социумида миллатлараро муносабатлар такомиллашувининг фалсафий-функционал тадқиқи. Ф.ф.д., дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – Б. 13–15.
9. Назаров Н.А. Марказий Осиё полиэтник социумида миллатлараро муносабатлар такомиллашувининг фалсафий-функционал тадқиқи. – Тошкент: 2019. – 270 б. – Б. 87–94.